



FUQAROLAR ISHTIROKIDAGI “TASHABBUSLI BYUDJET” VA UNI O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASHNING DOLZARBLIGI

Murtozayeva Zarnigor

TMI “Moliya” fakulteti talabasi

Sharapova Mashxura

Ilmiy rahbar: TMI “Moliya” kafedrası dots.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7905647>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01- May 2023 yil

Ma’qullandi: 05-May 2023 yil

Nashr qilindi: 08-May 2023 yil

KEY WORDS

*byudjet tizimi, Tashabbusli
byudjet, islohotlar, jamoatchilik
nazorati, loyihalar*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada so‘nggi yillarda mamlakatimizda
byudjet ma’lumotlarining ochiqligi va shaffofligini
yanada oshirish, byudjet mablag‘larining shakllanishi va
sarflanishi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini
kuchaytirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga
oshirilayotganligiga to‘xtalib o‘tilgan.*

Mamlakatimizda byudjet tizimi ochiqligi va shaffofligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri tegishli hudud mahalliy byudjetidan amalga oshiriladigan xarajatlar yo'nalishlarini belgilashda fuqarolar faol ishtirokining ta'minlanishidir.

Byudjet ma'lumotlarining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, byudjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 avgustdagi «Byudjet ma'lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3917-son Qarori¹ muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu “Tashabbusli byudjet”ning dolzarbligi mamlakat Prezidenti tomonidan ilgari surilgan bo'lib, unga ko'ra kelgusi yildan viloyat byudjetlari qo'shimcha mablag'larining 30 foizi ham “Tashabbusli byudjet” loyihalariga beriladi².

Umuman, kelgusi yildan boshlab mahallalardagi infratuzilma uchun mablag'lar faqatgina “Tashabbusli byudjet” orqali aholi ovoz bergan loyihalarga ajratilishi belgilandi. Bunda “Tashabbusli byudjet” loyihalari uchun mablag'lar 3,5 baravarga oshirilib, 8 trillion so'mga yetkaziladi.

2019 yil 1 yanvaridan jamoatchilik fikrini shakllantirish uchun tuman (shahar)lar byudjetlarining qo'shimcha manbalari hisobidan moliyalashtirish taklif etilayotgan tadbirlar to'g'risidagi axborotni joylashtirishni nazarda tutadigan «Ochiq byudjet» axborot portali (<https://openbudget.uz/>) ishga tushirildi.

Tashabbusli byudjet fuqarolarning takliflarini hisobga olgan holda mahalliy byudjet mablag'larining bir qismini taqsimlash va bu mablag'larni sarflash yo'nalishlarini aniqlash

¹ www.lex.uz

² www.president.uz

bo'yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlarni qabul qilish, shuningdek qabul qilingan qarorlar ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratining o'rnatilishidir.

Tashabbusli byudjetdan ko'zlangan maqsad quyidagilardan iboratdir:

- ❖ fuqarolarga joriy byudjet va byudjetni rejalashtirish to'g'risida ma'lumot berish;
- ❖ mablag'larning noo'rin sarflanishini oldini olish;
- ❖ mahalliy hokimiyat va fuqarolar tomonidan tegishli hududda muhim ahamiyatga molik sohalar uchun birgalikda qarorlar qabul qilish;
- ❖ fuqarolarni hududda amalga oshirilayotgan islohotlar yo'nalishlariga mos ravishda sarflanayotgan mablag'lar to'g'risida xabardor qilish.

Tashabbusli byudjet byudjet jarayonida ma'lum hududdagi jamoatchilikning, fuqarolik jamiyati institutlarining va ayrim fuqarolarning o'z aholi punktlarini rivojlantirish yo'llarini belgilashdagi ishtirok etish imkoniyatini beradi.

Mahalliy byudjetlardan xarajatlarni moliyalashtirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash mahalliy ijroiya va vakillik organlari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Odatda, ushbu masalalar bilan byudjet jarayonida ishtirok etuvchi turli vakolatli organlar shug'ullanadilar. Ammo, mahalliy ijroiya va vakillik organlari e'tiboridan chetda qoladigan muammolar ham mavjud. Bu ichimlik suvini tashib iste'mol qilish muammosi yoki elektr ta'minotidagi uzilish kabi masalalardan tortib, yoritilmagan piyodalar yo'lagi yoki turar joy binolarida kommunal xizmat ko'rsatishga aloqador muammolar bo'lishi mumkin. Aynan shu holatda, tashabbusli byudjet muammoni umumiy muhokamaga olib chiqish va uni hal qilishning maqbul variantini topishga imkon beradi. Ma'lumki, fuqarolar o'z yashash joylari (mahalla, tuman, shahar)dagi turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini yaxshi bilishadi va fuqarolar tomonidan taklif etilgan loyihalar aksariyat hollarda asosli hisoblanadi. Chunki, ma'lum bir joyda uzoq vaqt yashayotgan fuqarogina birinchi navbatda qanday masalalarni hal qilish kerakligini ko'rsata oladi.

Mahalliy hokimiyat organlari tomonidan keng jamoatchilik manfaatiga xizmat qiluvchi biror qarorni qabul qilishda yoki loyihani amalga oshirishda fuqarolarning fikr-mulohazalari va takliflarini inobatga olinmasligi ularning noroziligiga, ayrim hollarda mablag'lardan samarasiz foydalanishga olib kelishi mumkin.

Tashabbusli byudjetning yana bir o'ziga xos xususiyati – u to'g'ridan-to'g'ri demokratiya mexanizmiga asoslanadi, bunda fuqarolar bevosita umumiy va mahalliy ahamiyatdagi loyihalar tashabbusini ilgari suradi, ovoz beradi, pirovardida, shu loyihani moliyalashtirilishiga erishiladi. Byudjet mablag'larini yo'nalishini belgilashda oddiy fuqarolarning ham byudjet jarayonida doimiy va bevosita ishtirok etishiga imkoniyat beriladi. Ma'lumki, 2021 yilga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 avgustdagi «Budjet ma'lumotlarining ochiqqligini va budjet jarayonida fuqarolarning ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3917-son Qaroriga ko'ra tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining qo'shimcha manbalaridan kamida 10 foizi jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga sarflangan. Davlat budjetining shakllanishi va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish loyihalarini ishlab chiqish jarayoniga aholini faol jalb etish hamda joylardagi dolzarb muammolarni hal etishda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish maqsadida 2021 yil 13 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5072-sonli Qarori qabul qilindi.

Yuqoridagi Qarorga muvofiq aprel oyida, ya'ni 2021 yil uchun tuman va shaharlari budjeti tasdiqlangan muddatdan 4 oy o'tib qabul qilindi. Tabiiyki, yil boshida tuman (shahar)lar budjetlari tasdiqlanayotganida umumiy xarajatlarning 5 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirish bo'yicha mablag' ko'zda tutilmagan. Shu bois, Prezident Qaroriga ko'ra, tanlab olingan tuman (shahar)lar budjetlariga qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti mablag'lari hisobidan 92,7 milliard so'm mablag' ajratildi.



1-rasm. 2021 yilda saralash bosqichi doirasida amalga oshirilgan ishlar ³

Talab yuqori bo'lgan loyihalar. Fuqarolar tomonidan ilgari surilgan loyihalarning aksariyat qismi yo'llarni ta'mirlash, umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash, yoritish tizimlarini yaxshilash va ichimlik suvi ta'minoti bo'yicha qoldirilgan.

2021 yilda o'tkazilgan tashabbusli budjet jarayoni davomida ichki yo'llarni ta'mirlash bo'yicha fuqarolardan jami 13 853 ta taklif kelib tushgan. Bu jami takliflarning 34 foizini tashkil qiladi. Bu tadbirga 265 000 ga yaqin fuqora ovoz bergan (jami ovozlarning 23 foizi). G'olib deb topilgan takliflarning aksariyat qismi ya'ni, 400 ga yaqin (jami takliflarga nisbatan 26 foizi) aynan ichki yo'llarni ta'mirlash bilan bog'liq muammolarni o'zida aks ettirgan. Bu tadbirlarga yil yakunlariga ko'ra g'olib deb topilgan takliflar doirasida hududlarda qariyb 300 km ichki yo'llar va piyodalar yo'laklari ta'mirlangan. Jumladan, birgina Qashqadaryo viloyatining o'zida 46 ta taklif doirasida 13,1 mlrd so'mdan ortiq mablag'lar yo'naltirilib, natijada 37,8 km yo'llarda ta'mirlash ishlari olib borilgan. Shundan, qariyb 28 km da yo'llar asfal't qoplama bilan qoplangan bo'lsa, 10 km ga yaqin tuproqli yo'llarga shag'al yotqizilgan.

1-jadval

2021 yil maydan boshlab budjet xarajatlarining 5 foizi jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan tuman (shahar)larga ajratilgan mablag'lar miqdori ⁴

³ <https://openbudget.uz/>

⁴ <https://openbudget.uz/oz/statebudgets>

T/p	Hudud nomi	Tuman(shahar)lar nomi	Qo'shimcha ajratilgan mablag'lar (mln so'm)
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Kegeyli tumani	3 429
2.	Andijon viloyati	Asaka tumani	10 052
3.	Buxoro viloyati	G'ijdivon tumani	9 754
4.	Jizzax viloyati	Do'stlik tumani	2 995
5.	Qashqadaryo viloyati	Qarshi tumani	6 992
6.	Navoiy viloyati	Xatirchi tumani	7 662
7.	Namangan viloyati	Chust tumani	8 204
8.	Samarqand viloyati	Bulung'ur tumani	6 167
9.	Surxondaryo viloyati	Oltinsoy tumani	7 165
10.	Sirdaryo viloyati	Xovos tumani	3 825
11.	Toshkent viloyati	Quyi Chirchiq tumani	3 913
12.	Farg'ona viloyati	Farg'ona shahri	10 394

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, so'nggi yillarda aksariyat mamlakatlarda tashabbusli byudjetlashtirish mexanizmlaridan foydalanish amaliyoti kuchayib bormoqda. Hozirgi vaqtda ushbu mexanizmdan turli mamlakatlarning 7000 dan ortiq mahalliy byudjetlarida foydalanilmoqda. Agar tashabbusli byudjetlashtirishni amalga oshirishning bevosita natijalari qurilgan yoki ta'mirlangan infratuzilma ob'ektlari deb hisoblansa, loyihalarni amalga oshirish bilan birga keladigan quyidagi bir qator natijalar qo'shimcha ravishda iqtisodiy samaralar deb atalishi mantiqan to'g'ri bo'ladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2018 yil 22 avgustdagi "Byudjet ma'lumotlarining ochiqqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917 sonli Qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi «Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5072-sonli Qarori
3. Milan – Participatory Budgeting. Collaborative Cities.
https://bilanciopartecipativo.comune.milano.it/monitors/index/monitoraggio-dei-progetti#contexts_2
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. M harfi. – T.: O'ME davlat ilmiy nashriyoti. – B. 352
5. Хачатрян Г.Н., Шульга И.Е., Сухова А.С. Практики партисипаторного бюджетирования в больших городах / Под общей ред. Шульги И.Е. – М.: «Алекс», 2020 – 106 с.

6. Ismoilova N., Sharapova M. (2019). Effective use of financial control in public finance management (PFM). International Journal of Economics, Finance and Sustainable Development, 1(2), 8-10.
7. Sharapova, M. A. (2020). Practice of budget financing of public education system. Scientific electronic journal "International Finance and Accounting". No. 3
8. Cascais' Participatory Budget: an inspiring example, <https://urbact.eu/cascais-participatory-budget-inspiringexample>; Nadejda na demokratiyu / Sbornik statey pod obshey redaksiyey Nel'sona Diasa. M.: Aleks, 2019. – 636 s.
9. https://www.pazin.hr/wp-content/uploads/Proracun_dokumenti/Proracun%20u%20malom%20za%202020.%20Pazin.pdf

